

**Eshqobil Shukurning stilizatsiya xarakteridagi she'rlari tahlili****Sadoqat Ergashova**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich tayanch doktranti

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada iste'dodli shoir Eshqobil Shukur ijodida qo'llangan stilizatsiya xarakteridagi she'rlari tahlili haqida so'z boradi. Maqola mavzusi ilmiy-nazariy fikrlar bilan asoslangan holda misollar vositasida ochib berilgan.

*Kalit so'zlar:* stilizatsiya xarakteridagi she'rlar, ijodkor mahorati, folklorizmlar, obraz, xalqona uslub.

Stilizatsiyaviy folklorizmlarda ayni takror emas, balki xalqona uslub, xalqona pafos ustuvorlik qiladi. Bu kabi usulda yaratilgan asarlar xalqona shaklni yodga solishi bilan xarakterlanadi. Stilizatsion folklorizmlar ijodkor mahoratini, uning xalq ijodi bilimdoni ekanligini belgilovchi muhim vosita desak yanglishmagan bo'lamiz. Ijodkor xalq og'zaki ijodiga mansub janr, motiv, ohang yoki obrazni o'z usulida, yangicha ko'rinishda qayta yaratar ekan u nafaqat yozma adabiyot rivojiga balki, og'zaki adabiyot umrboqiyiligiga ham o'z hissasini qo'shgan hisoblanadi. Demak, xalq og'zaki ijodiga mansub asar syujeti, mazmuni, shakli, ohangi aynan saqlanib, yangicha usulda, shaklda yaratilgan asarlar stilizatsion folklorizmlarni vujudga keltiradi.

L.Sharipova stilizatsion folklorizmlar folklor janrlari (doston, ertak, afsona, rivoyat, qo'shik, yig'i, yo'qlov, alla kabilar)ning asosiy motivlari va badiiy shaklini ifoda uslubini hamda ularga aloqador yuksak g'oyaviy motivlarni, an'anaviy epik obrazlarni, ko'tarinki ritmni ijodiy o'zlashtirish natijasida yuzaga keladi, deya ta'kidlaydi va stilizatsion folklorizmlarni shu asosda to'rt turga bo'ladi: 1. Janr stilizatsiyasi. 2. Motiv stilizatsiyasi. 3. Obraz stilizatsiyasi. 4. Ritm stilizatsiyasi<sup>1</sup>.

Folklor janrlarini o'zlashtirib, ularni yozma adabiyotga olib kirish **janr stilizatsiyasi** hisoblanadi. Folklor janrlarini aynan o'zlashtirish imkoniyatiga ega emas, negaki, ikki adabiyot ham o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Janr o'zlashuvi ikki tomonlamadir. Dastlab yozma adabiyot folkloridan janr o'zlashtirgan bo'lsa, keyinchalik og'zaki adabiyot ham yozma adabiyot janrlaridan foydalangan.

Yozma adabiyotimizda dastlab doston, maqol, topishmoq, yo'qlov, yig'i, keyinchalik yor-yor, alla kabi folklor janrlari stilizatsiya qilingan. XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida, xususan, Shoir Eshqobil Shukur ijodida ham ana shu an'ananing davomini ko'ramiz. Shoirning "Mengim momoning yo'qlovi"<sup>2</sup> nomli she'rida motam marosimiga aloqador yig'i va yo'qlov xakteri namoyon bo'ladi. Surgunga ketgan yaqinlari izidan Sibirga borgan momo o'sha yurtlarda joni-omonatini topshirayotib, o'z-o'ziga yo'qlov aytadi. Voqelik sivilizatsiyasi yuzaga kelgan. Quyida she'rdan parcha keltiramiz:

*Go'rim o'z yuragimda,  
Yurakda bordir Vatan.  
Qishloqdan bichib kelgan  
Ko'yलगim bo'lsin kafan.*

<sup>1</sup> Шарипова Л.Ф. XX асрнинг 70–80-йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризмлар: Филол. фанлари номз. дисс. – Тошкент, 2008. – Б.88.

<sup>2</sup> Эшқобил Шукур. Яшил қушлар. –Т., Ёзувчи, 1995. –Б. 37.

*Voy, Mengim-a, sho'r Mengim.*

*Uvv!..Uv!!!*

Shoir onasidan eshitgan “Kelin salom” qo‘shig‘ini eshitib, uning quyidagi parchasi orqali qadim qo‘shiqlarimiz ruhini “Xalq ohangida”<sup>3</sup> nomli she‘ri orqali xalqimizga qaytaradi, demakki, stilizatsiya qiladi:

*“Oybulutning orasidan oyday kelinlar obkeldik,  
Kunbulutning orasidan kunday kelinlar obkeldik”.*

Qo‘shiqdan qolgan shugina parcha shoir qalb prizmasidan o‘tib, quyidagi she‘rga aylandi:

*“Oybulutning orasidan oyday kelinlar kelar,  
Kunbulutning orasidan kunday kelinlar kelar  
Taram-taram sochlar mana boylar ko‘ngilni,  
Qalam-qalam qoshlar yana naylar ko‘ngilni...”*

Shoirning yana bir “Qadimiy qo‘shiq”<sup>4</sup> nomli she‘ri ham folklor materiallari asosida dunyoga kelgan. Adabiy suhbatlarning birida Esqobol Shukur ushbu she‘rning yaratilishi xususida so‘z ochib, “Xalq tilida saqlanib qolgan yolg‘iz bir satr, uning “Mening manglay sochimni tong shamoli qayirdi” satrigina qolgan”. – deb xotirlagan edi. Shoir bu qo‘shiqning ruhini jonlantirib, betakror she‘r yaratgan.

She‘rga lirik qahramon tongga yuzlangan chog‘ “manglay sochini tong shamoli qayirgan”i holati bilan kirib keladi. Bu obrazli ifoda, qo‘shiq xalq tomonidan yaratilgan, ammo ular yo‘qolib ketishi mumkin edi. Ushbu qo‘shiqlarni hech kim aytmasa, bilmasa bu qo‘shiqlar o‘z-o‘zidan odamlar xotirasidan ko‘tariladi. Shoirni shu holatlar tashvishga soladi, bunday qo‘shiqlarni endilikda saqlab qolishning yagona yo‘li ularni topish va qayta ishlash kerak deb hisolaydi.

*Mening manglay sochimni  
Tong shamoli qayirdi,  
Ayta qolgin, shamoljon,  
Jon shamoli qayerda?*

Tong shamoliga murojaat etayotgan lirik qahramon “Jon shamoli qayerda?” deydi. Qiziq, tong shamoli quyoshning chiqishi bilan bog‘liq, jon shamoli-chi? U inson ruhiga aloqador emasmi?

*Sahar-cahar yuragim  
Shudring kechib sayrda,  
Ayting endi saharlar,  
Dil sahari qayerda?*

Ijodkor lirik qahramonning tongda go‘yo yurak yalang‘ochlab shudring kechganidan sevinadi. Saharlardan “dil sahari” –oydin tuyg‘ular tongi qayerda deb so‘raydi.

*Mening qora boshimni  
Oqbulut aylantirdi,  
Ayta qolgin, jon bulut,  
Jon yomg‘iri qayerda?*

<sup>3</sup> Эшқобил Шүкүр. Яшил қушлар. –Т., Ёзувчи, 1995. –Б. 92.

<sup>4</sup> Эшқобил Шүкүр. Яшил қушлар. –Т., Ёзувчи, 1995. –Б. 292.

Lirik qahramon boshdagi xayollarini oq bulutlar olib, go‘yo sehrlab qo‘yganini aytar ekan, u qachondir yomg‘ir bo‘lib ruhini ham g‘amlardan arishini istaydi va uni yo‘qlaydi. She‘rining so‘nggida birinchi bayt takrorlanadi. Ushbu she‘rda **“janr sivilizatsiyasi”** amalga oshirilib, so‘zlashuv ikki tomonlama kechadi.

Xalq og‘zaki ijodida savol-javob, suhbat, aytishuv shaklida yozilgan she‘rlarni ko‘p uchratamiz. Bu shakllar ko‘plab shoirlar ijodiga ham ko‘chgan. Masalan, Usmon Azimning “Baxshiyona” turkumida Oqbotir va Qora botir suhbatini olaylik:

**“Oqbotir:**

*Chopa-chopa otlar quladi,  
Jang-jadalda sindi qilichlar.  
Do‘st, sen omon holasan hali,  
Meni yovga topshirsang agar!*

**Qorabotir:**

*Ko‘zlarimga quyosh ko‘rinmas.  
Rahibimiz zo‘r ekan — ayon.  
Do‘stim, senga fido bo‘lay, bas,  
Sen uchun men topshirayin jon.”<sup>5</sup>*

Ushbu turkumdan o‘rin olgan shoir va Elbek baxshi aytishuvining har bir misrasida xalqona ruh ustuvorligini ko‘rishimiz mumkin:

**Shoir:**

*“— Elbek baxshi, bu dunyoning o‘tarin ayt,  
Bu dunyoga umr kelib-ketarin ayt,  
Manov bizning pahlavonlar ko‘krak kerib —  
Maydon kirsas, falakni ham yiqarin ayt.*

**Elbek baxshi:**

*— Men ko‘rganman osmonlarning tinig‘ini,  
Toshlar tegdi, terib oldim sinig‘ini.  
Beshikdagi go‘daklarga tig‘ sanchdilar,  
Shunda bildim mardlaringning qilig‘ini”<sup>6</sup>*

Iste‘dodli shoir Eshqobil Shukurning “Qodir baxshi yodi”<sup>7</sup> she‘ri ham obraz qo‘llash va xalqona ohanggi bilan o‘z qimmatiga ega. Bunda shoir “chanqovuzni kim chaldi” savolini 6-marta qo‘llaydi va har gal savol so‘raluvchi o‘zgarib boradi. Har bir berilgan javob shaxs nuqtayi nazaridan kelib javoblanadi:

1.

**Og‘am, aytgin,**

*Chanqovuzni kim chaldi?*

*himmat tutib kuyov kutgan kelinlar chaldi.*

Tadqiqotimizning ikkinchi bobida chanqovuz haqida batafsil to‘xtalib o‘tilgan. Aytib o‘tilganidek, uni ko‘proq momolarimiz, qizlarimiz chaladi. U dasht ohanglarini o‘zida mujassamlashtirib, tinglovchini o‘ziga ohangrabodek tortadi, “kuyov kutgan kelinlar” chalishi ham shundan, aslida.

<sup>5</sup> Азим, Усмон. Сайланма: Шеърлар. —.:«Шарқ» нашрибт — матбаа концерни, 1995. —Б 193.

<sup>6</sup> O‘sha asar. —В 199.

<sup>7</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. —Б 85.

2. —  
**Sarbon, aytgin,**  
*Chanqovuzni kim chaldi?*  
 — *Q*  
*aqshab-qaqshab qumda qolgan qulunlar chaldi.*  
 Sarbonning vazifasi sahroda otlar va tuyalarga yetakchilik qilish. Shuning uchun ham qaqshagan qulun (otning bir yoshga to‘lmagan bolasi) lar chalganini obrazli tasvirlaydi.
3. —  
**Singlim, sen ayt,**  
*Chanqovuzni kim chaldi?*  
 — *D*  
*alalarda kuyib ketgan oylarim chaldi.*  
 Mehnatdan qo‘llari qavargan, oftob issig‘idan qoraygan singlisiga o‘xshash “oylar” (ayol va qizlar demoqchi) o‘z dardini oshkora etmoq uchun, dilidagi dardlarini kuylagani uqtirilmoqda.
4. —  
**Ona, sen ayt,**  
*Chanqovuzni kim chaldi?*  
 — *B*  
*olalarim tashlab ketgan kuylarim chaldi.*  
 Bu misradagi kuyunchak ona obrazi bolalaridan qolgan kuylar, ya‘ni qalbidagi dardlar chalganligini aytadi. Bu yerda ona tomonidan kuy so‘ziga qo‘shilgan egalik qo‘shimchasi “-im” dardning onaga tegishli ekanligini ko‘rsatadi.
5. —  
**Elim, sen ayt,**  
*Chanqovuzni kim chaldi?*  
 — *T*  
*omirimga qo‘nib o‘tgan bir bulbul chaldi.*  
 Bu yerda bulbul-yurtning erk va ozodlikni kuylovchi shoir(lar)dir. Tomir esa hayotdan nishona. Ozodlik, erk tuyg‘ulari chanqovuz timsolida ochib berilgan.
6. —  
**Baxshim, sen ayt,**  
*Chanqovuzni kim chaldi?*  
 — *K*  
*o‘kragida erk chayqalgan ena el chaldi.*  
 Oxirgi ikki band o‘rtasida uzviy bog‘liqlik bor. Har ikki bandda erk va ozod vatan timsoli ustuvorlik qiladi.  
**Motiv stilizatsiyasi,** nomidan ma’lumki, folklor ta’siridagi motivlar asosida paydo bo‘ladi. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida to‘y, tush, safar, befarzandlik, maktub yo‘llash, ov kabi dostonlarda uchraydigan motivlar stilizatsiyasi keng qo‘llanilib kelinmoqda. Masalan, Eshqobil Shukurning “Chimildiq”<sup>8</sup> she’rini o‘qir ekanmiz, to‘y va u bilan bog‘liq jarayonlar ko‘z oldimizdan o‘tadi:

<sup>8</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. —Б 62.

*Chimildiq tortlari silkindi,  
Kemaday qalqiydi chimildiq.  
Shamolga yoy alvon yelkanni,  
Xushbo‘y havolarga cho‘milib.*

She‘rning birinchi bandida xalqimiz urf-odatlaridan biri hisoblangan chimildiq tasviri beriladi. Uning qalqib turishi kemaga qiyoslanadi.

*She‘rning birinchi, ikkinchi va uchinchi bandlari o‘rtasida,  
Sochala sochingiz, sochala,*

*Sepini ochingiz chechalar* bayti takror holda qo‘llanadi va xalqona ohangni yuzaga chiqaradi.

Ikkinchi bandda noz bilan kerilgan qudalarni “kapkirday” tashbehi bilan ifodalab o‘tadi va xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan, to‘ylarda hozirgacha saqlanib qolgan “kampir o‘ldi” marosimi haqida to‘xtalib o‘tiladi. “Bu marosimda odatda biron-bir kampir chimildiq tutilgan uyning ostonasiga o‘zini o‘lganga solib yotib oladi. Kuyovnavkarlardan biri kampirga atagan puli borligini va unga berishini aytgandan keyin kampir yotgan joyidan tirilib turadi va kuyov bilan o‘rtoqlarini chimildiq tomonga o‘tkazib yuboradi”.<sup>9</sup>

*...Kuyovning pulidin tirilgan  
Ostonada o‘lgan kampirday.*

Bu yerda urf-odatga ishora bilan bir qatorda qudalarni kuyovdan pul olib “tirilgan” kampirga ham mengzash kuzatiladi.

Uchinchi band:

*Otalar eshikda tortinib,  
Yo‘l bo‘yiga o‘tin qalatar.  
Ichkarida kulib, qimtinib,  
Yangalari shakar yalatar.*

Bu bandda “ota” va “yanga” obrazi juda chiroyli ochib berilgan. Bilamizki, qizining to‘yida ota oldingi boshqaruvchanlik holatidan bosiq, jim holatga o‘tadi. Sababi qizini boshqa uyga “berib yuborish” og‘ir, shuning uchun shoir ota obraziga nisbatan “tortinib” holatida ifodalaydi. Yanga esa ko‘z oldimizda kelinning yonida turadigan, oro beradigan, hatto shakar yalatadigan obrazda gavdalanadi. Bundan tashqari, xalqimizga xos bo‘lgan “o‘t qalatish”<sup>10</sup> urf-odati ota obrazi orqali ochib berilgan.

Oxirgi misrada keltirilgan “shakar yalatish” an‘analari ham shoir nazaridan chetda qolmagan. “Bu odat har ikki tomon boshlagan ishning oxiri ham xuddi shirin suv kabi o‘tsin, yoshlarning turmushi shirin, totli bo‘lsin degan niyatda qilinadi”.<sup>11</sup>

To‘rtinchi bandda kuyovning kelin uyiga kirib kelishidagi hayajon holati va yangalarning bu jarayonga munosabati tasviri badiiy bo‘yoqlarda tasvirlanadi:

*Chimildiq tortlari silkindi,  
Chimildiq, yo‘lga soch gulingni.  
Kuyovning qomati ko‘rindi,  
Yangalar turatadi kelinni.*

<sup>9</sup> <https://oz.sputniknews.uz/20230607/ozbek-toyi-nikoh-va-undan-keyingi-urf-odatlarini-bilasizmi-35679224.html>

<sup>10</sup> Nikoh to‘yida kuyov o‘tadigan yo‘lning ikki chetiga olov yoqish odati. Surxondaryo viloyatining ayrim tumanlarida hozirgacha saqlanib qolgan.

<sup>11</sup> Haydarov Z.U. «NOMODDIY MADANIY MEROS» fanidan MA‘RUZALAR MATNI. Namangan-2014. 110-bet

Sheʼrning oxirgi bandida toʻyxona tasviri bilan bir qatorda qalbi orzu-havasga toʻla boʻlgan boʻydoqlarning “shoʻxliklari” tasvirlab berilgan:

*Kemaday qalqiydi chimildiq,  
Yonadi moy toʻlgan oʻchoqlar.  
Toʻyning havosiga choʻmilib,  
Qoshini qoqadi boʻydoqlar.  
...Bizni ham tinglangda chechalar.*

Baʼzan bir sheʼrda motivning bir necha turlari ham kelishi mumkin. Bu kabi qoʻsh motivlardan foydalanish ijodkorning isteʼdod koʻlami va xalq ogʻzaki ijoddan xabardorlik darajasini koʻrsatib beradi desak xato boʻlmaydi. Jumladan, Eshqobil Shukurning “Xudoyberdi chol hikoyasi”<sup>12</sup>da farzandsizlik va tush motivlari sheʼrga mohirlik bilan singdirilgan:

*Kun boʻyi takrorladi...  
Tun boʻyi takrorladi...  
Tili aylandi bitta ismga,  
Yuragi aylandi bitta ismga,  
ISMga...  
Sitilib ketmoqda koʻzidan yoʻllar,  
Sitilib bitmoqda umridan yillar,  
“Farzand koʻrsam edi uning ismini...  
Oh, uning ismini...”  
Takrorlayverardi, takrorlayverardi  
Xudosi bermagan Xudoyberdi chol.*

Yetmish yoshga kirgan Xudoyberdi chol va u bilan ellik yildan beri birga yashab kelayotgan kampir farzandsizlikdan iztirob chekadi. Cholga ham Xudoyberdi ismining tanlanishi Xudodan tilab olinganligiga ishoradir. Farzandsizlik motivi “Alpomish” dostonidagi Boyoʻgʻli va Boysari obrazlari orqali bizga tanish.

Sheʼrning oxirgi bandida tush motivi qoʻllangan boʻlib, Xudoyberdi tush koʻradi, tushida homilador kelini va oʻgʻli bilan birga choy ichib oʻtirgan edi:

*Xudoyberdi chol tush koʻradi:  
Bir kelin. Unda  
Yetmish ming kelinning husni, hayosi.  
Osmonday roʻmolining bir burji bilan  
Doʻppaygan qornini yashirib,  
Uyalib choy uzatar cholga.  
Jilmayib turadi yonida oʻgʻli...  
Soʻng...  
Tili aylanar bitta ismga,  
Yuragi aylanar bitta ismga...  
ISMga...*

<sup>12</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. —Б 271.

**Obraz stilizatsiyasi.** Og‘zaki ijod na‘munalaridagi mashhur obrazlarning yozma adabiyot tarkibida paydo bo‘lishi obraz stilizatsiyasi hisoblanadi<sup>13</sup>. Folklor obrazlari yozma adabiyot obrazlar olamini yanada boyitishga xizmat qiladi. Ular epik, ramziy, mifologik va dramatik tur janrlari obrazlari stilizatsiyasi –so‘zlashuvidir. Shoir Eshqobil Shukurning “Alpomish” ohanglarida<sup>14</sup> nomli she‘ri “Alpomish” dostoni ohanglariga uyg‘un ekanligini ko‘ramiz. Shu jihatdan she‘rda epik obrazlar so‘zlashuvi amalga oshgan deyish mumkin:

*Nomozshomda gullab so‘lgan tarzim bor,  
To‘xta, ey yo‘lovchi. Senga arzim bor,  
Orbonglagan ot boshida dardim bor,  
Ko‘nglim kuygan, kuyganlardan qarzim bor,  
Kuyib –kuyib suyganlarga arzim bor.*

She‘rda baxshilarning doston voqealari va qahramonlari ruhiy holatini tasvirlashda an‘anaviylik yo‘ldan borilgani kuzatiladi. O‘zaro qofiyadosh bo‘lib kelgan “*tarzim bor*”, “*arzim bor*”, “*dardim bor*”, “*qarzim bor*”, “*orzum bor*” satrlari she‘rda doston matnidagi kabi ohangdorlik kasb etadi. She‘rdagi yo‘lovchi obrazi xalq dostonlariga xos bo‘lgan asosiy qahramonlardan biridir. She‘rning ikkinchi bandida to‘ra, sulton; to‘rtinchi bandida Zuhro; beshinchi bandida Dalli obrazlari qo‘llangan.

“Tabassum xotirasi”<sup>15</sup> she‘rida “Ming kecha” ertagidagi Shaxrizod obrazi keltirilgan:

*...Ming kecha Shaxrizod ertagin tinglab  
Xayol qanotlarin tikdim niyatdan.  
Sizning chehrangizda o‘sha tabassum,  
Men uchun yuksakdir abadiyatdan...*

Shoirning “Sotqinlik”<sup>16</sup> she‘rida xalq dostonlari va ertaklariga xos bo‘lgan qirq dev obrazi qo‘llangan:

*... “Ustuxonni oling”, - der,  
Yelkamga mingan qirq dev...*

Folklor an‘analarini shoirning “Ko‘pkari”<sup>17</sup> she‘rida yanada yaqqolroq ko‘rishimiz mumkin. Uloq – xalqimizning qadimiy o‘yini. Eshqobil Shukurning ushbu she‘rini o‘qiganimizda, milliy an‘analarimiz, xalq o‘yinlari, kurash-ko‘pkari bahslarida yurgan bir chavandoz va uning hamrohi – ot obrazi tasviri ko‘z oldimizda jonlanadi:

*”Xayt!”- dedi, uloq ketdi,  
Uloqda tovoq ketdi.  
Nogahon el gurullar,  
Yer oynaday zirillar  
Otlarga qoldi maydon.*

Chavandoz otga ”xayt!” deya qamchi soldi. Ot poygaga qo‘shildi. Ungacha elning tanti bakovuli uloq ko‘pkari musobaqasi uchun qo‘yilgan sovrinni – ”tovoq” ni e‘lon qilgan, uning belgisi sifatida o‘rtaga uloq tashlangan edi. Bu zavqli tomoshaga yig‘ilgan xalq uzoq

<sup>13</sup> Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллар ўзбек шеърлятида фольклоризмлар: Филол.фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2008. - Б. 80.

<sup>14</sup> Эшқобил Шукур. Яшил қушлар. –Т., Ёзувчи, 1995. –Б. 255.

<sup>15</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 312.

<sup>16</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 88.

<sup>17</sup> Эшқобил Шукур. Яшил қушлар. –Т., Ёзувчи, 1995. –Б. 21.

kutilgan lahzalarda hayajonini yashirolmay oyoqqa qalqdi, "gur" etib ovoz berdi. Adirda otlardan chang-to'zon ko'tarildi. Tuyoqlar zarbidan yer zirillaydi. Bu maydon endi yolg'iz otlarga, ularning bellashuv maydoniga aylandi.

*Suluv –suluv yollari  
Suv o'tiday chayqaldi  
Yopinchiq'in gullari  
Yor yuziday sayqalli.*

Har bir otning o'z ishqibozi bor, uni munosib chavandoz chopsa ayni muddao. Otni kuni-tun parvarish etgan g'amxo'ri yollarini silab, ertangi bo'ladigan ko'pkarida uyaltirmasligini so'raydi. Qarang ot ko'pkarida shamolday uchib borayotir, uning suluv-suluv yollari suv o'tiday chayqalmoqda. Yopinchiq'ining gullari esa yorining yuziday yoniq-sayqalli...

*Yaraqlagan yag'ringda  
Semiz qirlar xarsillar,  
Tuyoqlaring tig'ida  
Qora chaqmoq chirsillar*

Ot yag'ringning baquvvatligi uning kuchga to'lganligining bir belgisi. Uning o'ktam harakatidan hatto baland-past "semiz" qirlar harsillab toliqmoqda. Tuyoqlarining tig'day uchida "qora chaqmoq chirsillar" ko'pkaridagi poyga jadal olmoqda.

*"Xayt!" - dedi, uloq ketdi,  
O'rtada taboq ketdi.  
Changakday qo'li bilan  
Kuch changallar chavandoz  
Otining yoli bilan  
Changni chalar chavandoz.*

Chavandozlar otlarini niqtaydi, kurash avj pallaga chiqmoqda. Har bir chavandoz poygada raqibiga chap berib sovringa ega bo'lmoqchi. O'rta qo'yilgan sovrin – taboq er yigitning munosib ulushi, o'ljasidir. Poygani el hayrat va katta hayajon bilan kuzatib turibdi. Hammaga zavq beradigan "xayt!" demish xitoblar otlarni ham birdek hayajonga solmoqda. Mard o'g'lon yolg'iz shu o'ljani olmoq uchun baquvvat qo'llari bilan o'ljasiga chang solgan va uloqni ayirgan. Endi kerakli nuqtaga uloqni yetkazmog'i lozim. Mana, chavandoz otini raqiblaridan farqli masofada ortda qoldirib ketmoqda. Otining suluv yollari havodagi changni soz kabi chalib sado bermoqda. Bu sado tulporning shiddat ovozi.

*Qora-qora qomati  
Qorayib ko'rinadi,  
Lekin chavandoz oti  
Ko'zlarda suriladi.  
Nogahon el gurillar  
Yer oynaday zirillar.*

Poygani boshida ketayotgan tulporning "qora-qora qomati" sekin-asta ko'rinmay uzoqlashdi. Tuyqus, mohir chavandozning oti odamlar nigohida surinadi. Misraga diqqat qilinsa, she'rdagi "Ko'zlarda surinadi" satridagi poetik topilma orqali xalq tilida "Ko'z-sux" deb atalmish hodisaga ishora etiladi. Ya'ni ko'z qarashidagi "suqlanish"–salbiy holat ifodasidir. Odamlar ko'z o'ngida bo'lgan voqeadan odamlar oyoqqa qalqdi. Chunki, bu hol kutilmagan, hozirgina uning harakatlaridan el zavqlanayotgan edi.



*Muzlab qoldi saraton*

*Quyosh qorga botadi*

*Ichdan yig'lar chopog'on*

*Oti o'lib yotadi*

*"Voh!"- dedi, uloq ketdi*

*Qosh ila qaboq ketdi.*

*Chavandozning ko'nglidan*

*Shom ila Iroq ketdi.*

Saratonning jazirasida odamlarning yuragi muzday. Otashin quyosh ham qorga botdi. Chavandoz ichidan sel bo'lib yig'layapti. Voqeadan tosh qotgan, hayron, chunki qarshisida oti – hamrohi jon taslim etib yotardi. "Voh!" dedi, o'rtandi-yondi, ammo uning dardli ovozi hech kim eshitmayotgandi. Chavandozning hol axvoli yuzida, qosh-qovog'ida zuhr topdi. Chavandozning yuzidan rang ketgan, ko'nglidan esa butun bori –dunyosi "Shom ila Iroq" ketayotgandi...

*Birdan kun qoldi qarib,*

*Qil sig'maydi ko'ngilga*

*Otning g'amin ko'tarib*

*Otsiz qaytar ovulga*

Chavandoz nazarida vaqt yo'qqa aylandi, u nimalar bo'layotganini tushunolmas, yolg'iz ko'z oldida otining siymosi, undan bo'lak ko'ngilda, xotirda hech narsa yo'q. U ovuliga ko'pkaridan shu alfozda "otining g'amini ko'tarib" qaytayotgan – otsiz qaytayotgandi.

*O'tday yongan daraga*

*O'zin tashlagan ko'nglim*

*Gurullagan davrada*

*Uloq tishlagan ko'nglim.*

Ha, uloqchi- chavandoz ovulining ori-nomusi uchun poygaga tushgan, o'tday yonayotgan bu maydonga, kurash maydoniga o'zini tashlagan edi. Uning ham ko'nglida tukkan niyatlari, tilaklari bor edi!

*Endi g'amli eriga*

*So'z aytmasdan botinib*

*Olti oy aza tutar*

*Chavandozning xotini*

Otga chavandoz qatori butun el achindi. Endi bu vaqtda so'z ochib bo'lmaydi chavandozga. Hatto uning ayoli ham bunga jur'at etolmaydi. Otga xuddi insonga motam tutgani kabi olti oy unga aza tutdi chavandozning xotini.

She'r syujeti xalqona tasvir, ifodaviylikka ega. Ayni damda xalq qadriyatlari, marosim va urf odatlarining uyg'unligi she'r kompozitsiyasidan o'rin olganki, muallif voqea tasvirini chizishda ulardan unumli foydalangan. Otni muqaddas bilgan xalqimizning hayvonot olami bilan bog'liq qarashlari she'rning mazmuniga singdirilgan.

**Ritm stilizatsiyasi.** Yozma adabiyotdagi ritm stilizatsiyasi folkloriy ritmika ta'sirida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda "alliteratsiya, anafora, tarse", takrir, naqorat kabi ohangdoshlik yaratuvchi qulay xalqona badiiy ifoda vositalari"<sup>18</sup> muhim rol o'ynaydi.

Eshqobil Shukurning "Sevgi"<sup>19</sup> she'ri folklor ohangida yozilgan bo'lib, *ritm stilizatsiyasini* hosil qilgan:

*Quv yelindan sutlar keldi sirqirab,  
q a n i s a n-u v?*

*Qora boshga qor yog'di yarqirab,  
q a n i s a n-u v?*

*Qizil-yashil kunlar o'tdi gurkirab,  
q a n i s a n-u v?*

Barcha murodlar amalga oshdi, ammo sevgidan darak yo'q. Lirik qahramon uni qidirmoqda "q a n i s a n-u v?"!. Xalq qo'shiqlariga xos bo'lgan ohang va pafos, har misrada o'zaro qofiyadosh so'zlar (*sirqirab-yarqirab-gurkirab-chirqirab-sharqirab-zirqirab*) ning kelishi ritm stilizatsiyasi uchun asos bo'lgan.

Shoirning yana bir 4 bandlik she'ri "Oydin qayg'u"<sup>20</sup> da ham "q a n i s a n u v" so'zi har band oxirida o'ziga xos yasaliş tizimiga ega bo'lgan shaxsga murojaat sifatida qo'llangan.

Birinchi bandda kunsuluv va tunsuluvga, ikkinchi bandda gulsuluv va dursuluvga, uchunchi bandda kuysuluv va oysuluvga, oxirgi bandda jonsuluv va ruhsuluvga murojlat qilinadi.

Shoirning "Sholi qo'riqchisi"<sup>21</sup> she'rida ham xalq qo'shiqlari ohangidagi "Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!" birikmasi 6 o'rinda takror kelib, ohangni kuchaytirgan:

...Chumchuq, chumchuq, sho'r chumchuq,  
Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!  
Tumshug'ingni toshga tut,  
Hoyyo-huyt! Hoyyo-huyt!...

Guvohi bo'lganimizdek, sholipoyaga qo'ngan chumchuqlari haydash uchun qo'riqchi tilidan yozilgan yuqoridagi she'rda ritm stilizatsiyasi hosil qilingan.

Yana bir "Ruhim"<sup>22</sup> she'rida takror, tarse, anafora va epifora vositasida ritm stilizatsiyasi hosil bo'lganligini ko'rishimiz mumkin:

*Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!*  
**Men** qushlarning tushlarida **ko'rinay**,  
**Men** tushlarning qushlarida **ko'rinay**.

*Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!*

<sup>18</sup> Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллар ўзбек шеърлятида фольклоризмлар: Филол.фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б 20.

<sup>19</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 281.

<sup>20</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 102.

<sup>21</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 10.

<sup>22</sup> Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Т, Шарқ, 2002. –Б 15.

*Men olovning gullarida ko‘rinay,  
Men gullarning tillarida ko‘rinay.*

*Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!  
Men to‘ylarning kuylarida ko‘rinay,  
Men kuylarning to‘ylarida ko‘rinay.*

*Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!  
Men ko‘zlarning so‘zlarida ko‘rinay,  
Men so‘zlarning ko‘zlarida ko‘rinay.*

*Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!*

She’rda kelgan “Ahay-aha-hay. Ahay-aha-hay!” birikmasi 5 o‘rinda takrorlanib kelgan va ritmning uzviyligini ta’minlagan. Tahlillardan anglashiladiki, folklorizm an’analari va obrazlari bilan tasvirlangan she’rlarda lirik qahramon ifodalamoqchi bo‘lgan fikr ohang bilan ifodalanishi o‘quvchini bezdirmaydi.

Umuman olganda, Eshqobil Shukur folklorizmning turli shakllaridan umumli foydalangan holda she’rlarining ta’sir doirasi, teran mazmun, samimiylik, jozibadorlik, poetik ohangini oshiradi. Shu bilan birga xalq urf-odatlari, unutilayotgan an’analarni ham yozma adabiyotga mohirlik bilan ko‘chiradi.

#### REFERENCES

1. Шарипова Л.Ф. XX асрнинг 70–80-йиллари ўзбек шеърлятида фольклоризмлар: Филол. фанлари номз. дисс. – Тошкент, 2008. – Б.88.
2. Эшқобил Шукур. Яшил кушлар. –Т., Ёзувчи, 1995.
3. Азим, Усмон. Сайланма: Шеърлар.—.:«Шарк» нашрибт — матбаа концерни, 1995. –Б 193.
4. Эшқобил Шукур. Хамал айвони. Т, Шарк, 2002.
5. <https://oz.sputniknews.uz/20230607/uzbek-toyi-nikoh-va-undan-keyingi-urf-odatlarini-bilasizmi-35679224.html>
6. Haydarov Z.U. «NOMODDIY MADANIY MEROS» fanidan MA‘RUZALAR MATNI. Namangan-2014. 110-bet